

QO‘QON SHAHRI ATROFIDAGI MADANIY YODGORLIKLAR

Yo‘ldashev Ikromjon Tursunaliyevich

Qo‘qon davlat universiteti Tarix kafedrası o‘qituvchisi, t.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo‘qon shahri va uning atrofida arxeologik tadqiqot va izlanishlar haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Jumladan, Qo‘qon shahri va uning atrofida amalga oshirilgan arxeologik ekspeditsiyalarning vodiy arxeologiya tarixshunosligini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berishga harakat qilingan bo‘lib, unda arxeologik ekspeditsiya natijalari tarixshunoslik jihatidan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon shahri, arxeologik tadqiqotlar, Tepaqo‘rg‘on yodgorligi, “Fergantrop” odami, Sariqo‘rg‘on qishlog‘i.

Аннотация: В статье дается подробная информация об археологических исследованиях и разведках в городе Коканд и его окрестностях. В частности, делается попытка раскрыть роль и значение археологических экспедиций, проведенных в городе Коканд и его окрестностях, в изучении историографии археологии долины, а также анализируются результаты археологической экспедиции с исторической точки зрения.

Ключевые слова: город Коканд, археологические исследования, памятник Тепакурган, человек-«фергантроп», село Сарыкурган.

Abstract: The article provides detailed information about archaeological research and exploration in the city of Kokand and its environs. In particular, an attempt is made to reveal the role and significance of archaeological expeditions conducted in the city of Kokand and its environs in studying the historiography of the valley's archaeology, and also analyzes the results of the archaeological expedition from a historical point of view.

Key words: city of Kokand, archaeological research, Tepakurgan monument, Ferganthropus man, village of Sarykurgan.

Kirish. O‘zbekistonda istiqlool yillari mobaynida barcha sohalar qatorida ilm-fanning rivojlanishiga ham katta e‘tibor berilib, e‘tirofga loyiq ishlar amalga oshirib kelinmoqda. So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohatlar ta‘lim va ilm-fanni yangi bo‘lqichga olib chiqdi. Bu borada, ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish, ta‘limning barcha bosqichlarida modernizatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga yanada kengroq jalb etish, jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yuksaltirish ustuvor vazifalar etib belgilangan. Shu munosabat bilan mana bir necha yildirki, Respublikamiz qadimiy shaharlarining tarixini o‘rganish va ularga bag‘ishlab xalqaro ilmiy konferensiyalar o‘tkazish hamda shu yo‘l bilan yurtimizning boy tarixini dunyoga tanitish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirilmoqda. Keyingi

yillarda ko'ha shaharlarimizdan Samarqandning 2750 yilligi, Toshkentning 2200 yilligi, Marg'ilonning 2000 yilligi tantanali ravishda nishonlandi.

Muhokama. Ma'lumki, 2011 yildan beri Qo'qon shahri va uning atrofida arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. 2021 yil iyun oyida esa, Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi a'zo mamlakatlarining Turizm masalalari bo'yicha vazirlarining VI yig'ilishida Qo'qon shahri Turkiy dunyo turizm poytaxti, deb e'lon qilingan edi. O'tgan vaqt davomida O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Farg'ona viloyat hokimligi va Qo'qon shahar hokimligi tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu borada alohida chora-tadbirlar ham belgilab olindi. Ayniqsa, qadimiy Qo'qon tarixining tub ildizlarini tadqiq qilish, uni ommalashtirish, turistlar uchun maxsus ko'rgazma va ekspozitsiyalar yaratish yo'lidagi ishlar kun sayin dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda Qo'qondagi Tepaqo'rg'on arxeologik yodgorligi muhim ahamiyat kasb etib, undagi arxeologik tadqiqotlarni qayta tiklash, topilgan ashyolar vositasida muzey tashkil etish bo'yicha harakatlar olib borilmoqda.

Ayni shu maqsadda tarix fanlari doktori A. Anorboyev boshchiligidagi ishchi guruh ushbu obyektga kelib, ilmiy-tadqiqotlar olib borishmoqdalar. Jumladan, 2011-yildagi tadqiqotlar uch yo'nalishda yo'lga qo'yilgan edi. Shaharning yoshini aniqlash maqsadida birinchi guruh arxeologlar Qo'qon shahrida joylashgan Tepa-qo'rg'on, ikkinchi guruh Buvayda tumanidagi Poshsho-Pirim yodgorliklarida keng ko'lamli qazish ishlarini olib borishgan. Uchinchi guruh esa, Qo'qon paleolitchilar guruhi, Qo'qon va uning atrofidagi hududlarning qadimgi tosh davriga oid yodgorliklarini qidiruv ishlari bilan shug'ullanishgan. Albatta, ushbu tadqiqotlar Qo'qon va shahar atrofining uzoq o'tmishi haqida muhim ilmiy ma'lumotlar beradi. Quyida Qo'qon arxeologik ekspeditsiyasi paleolitchilar guruhining ilmiy izlanishlari va ularning dastlabki natijalari haqida keng ko'lamli ma'lumotlar yetkaziladi.

Farg'ona vodiysi hududlari ibtidoiy davrlardan oq odam yashashi hamda taraqqiy qilishi uchun juda qulay tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan maskanlardan biri hisoblangan. So'x daryosining yuqori qismlaridan nafaqat, O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda eng qadimgi madaniy yodgorliklar sanaladigan Selungur, Chashma kabi ilk paleolit davriga oid makonlar topib o'rganilgan. Ulardan Selungur yodgorligi olamshumul ahamiyatga molik ma'lumotlarni bergan. Bu yerdan fanda "Fergantrop" yoki Farg'ona odami nomi bilan mashhur bo'lgan xomo erektuslarning (lot. xomo erektus-tik yuruvchi odam) suyak qoldiqlari aniqlangan va ular hozirda Markaziy Osiyoda ma'lum bo'lgan eng qadimgi paleoantropologik topilmalar hisoblanadi. G'orning madaniy qatlamlaridan o'sha davr ekologiyasini tiklash imkonini beradigan muhim qazilma hayvonlar va o'simliklar qoldiqlari topib o'rganilgan. Shuningdek, Selungurning 8 ta madaniy qatlamlaridan 5000 dan ziyod tosh buyumlar aniqlanganki,

ular Osiyocha qadimgi tosh davri (ilk paleolit) madaniyati nomi bilan jahonga mashhurdir. Yodgorlikning davriy sanasi 1,5 million yillar bilan belgilangan.

Selungur g'ori yaqinidagi Chashma qishlog'idan yig'ib olingan tosh buyumlar ham o'ziga xos bo'lib, ular ilk paleolit davrining o'rtalari uchun xosdir (300 ming yillar muqaddam).

O'rta paleolit (100-40 ming yillar) bosqichiga oid yodgorliklar Farg'onadan Quvasoyga boriladigan yo'l bo'yida aniqlangan va ular ushbu joy nomi bilan Qal'acha 1-5 topilmajoylari sifatida fanga kiritilgan. Bu yerdan topilgan arxeologik materiallarga asoslanib aytish mumkinki, ular neandertal tipidagi odamlarning faoliyati mahsulidir.

Mezolit davriga oid bir qator yodgorliklar Farg'ona viloyatining So'x tumani hududlaridan topilgan va ular Obishir mezolit (milodda avvalgi IX-VII ming yilliklarga oid) madaniyati nomi bilan fanda mashhurdir. Keyinchalik, ushbu mezolit davri jamoalari Markaziy Farg'onadagi o'ziga xos neolit (miloddan avvalgi VIII-IV ming yilliklar) madaniyatini shakllanishiga zamin hozirlaganlar.

Ko'rinib turibdiki, Farg'ona viloyati hududlaridan tosh davrining barcha bosqichlariga oid yodgorliklar, madaniyatlar aniqlangan. Biroq, ushbu hududlardan hanuzgacha paleolit davrining so'ngi bosqichiga (40-12-ming yilliklar) oid yodgorliklar topilmagan edi.

Qo'qon paleolitchilar guruhi Yaypan tumanidagi Jonobod qishlog'ining yuqori chekkasida joylashgan qayroqli-toshloq hududlarda arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. Ma'lum bo'lishicha, ushbu qayroqli-toshloqlar hali yer paydo bo'lgunga qadar vujudga kelgan. Bu yerdan topilgan chig'anoqlar qoldiqlari ham fikrimizni tasdiqlaydi. Qadimda Qo'qon va uning atrofi suv bilan qoplanganligi va aynan ushbu qayroqli tepaliklar uning sohili bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Qadimgi tosh davrida yashagan ibtidoiy odamlar esa, ushbu sohillarga tashrif buyurishib, ovchilik, terimchilik, teriga va suyakka ishlov berish ishlari bilan shug'ullanganlar. Ehtimol, qayroqli tepaliklarda ularning mavsumiy manzilgohlari ham bo'lgan, biroq, keyingi davrlardagi qor-yomg'ir suvlari bu tepaliklarni tez-tez yuvib turganligi tufayli bu yerda mavjud bo'lgan ibtidoiy makonlar pastliklarga oqizib ketilgan bo'lishi mumkin. Ushbu toshloqlardagi tabiiy toshlarning aksariyati shunday oqizishlar tufayli bir-biriga urilishi va termik ta'sirlar oqibatida parchalanib ketgan. Ammo, ta'kidlash joizki, ushbu tepaliklardagi toshlar orasida ibtidoiy odamlar tomonidan tosh qurollar yasashlari uchun yaroqli bo'lganlari ham talaygina. Bularga kremniylashgan tosh jinslari, qayroqtoshlar, bazalt toshlar va hokazolarni kiritish mumkin. Eng muhimi, bu yerdagi tosh uyumlari orasidan paleolit davri odamlari tomonidan ishlov berilgan tosh buyumlarning topilishi bo'ldi. Shunday qilib, Jonobod qishlog'ining yuqori qismidan toshdan yasalgan, teriga, yog'ochga hamda suyakka ishlov berish uchun mo'ljallangan tishsimon retushli, o'yib-kertib ishlangan tosh qurollar, hamda hayvon suyaklariga

ishlov beradigan tosh kesgichlar topildi. Ushbu tosh buyumlar ishlanish texnikasiga ko'ra so'ngi paleolit davrining boshlari, ya'ni miloddan avvalgi 40-ming yilliklar bilan sanalanishi mumkin. Demak, Farg'ona tarixida birinchi marta Qo'qon atrofidan so'ngi paleolit davriga oid arxeologik materiallar aniqlangan.

So'ngi paleolit davri - insoniyat tarixidagi dastlabki zamonaviy tipdagi odamlar paydo bo'lgan tarixiy bosqich bo'lib, aynan ana shu davrda yashagan ajdodlarimiz o'z madaniy va hayotiy tajribalarini boyitib borib, keyingi tarixiy tamaddunlarning shakllanishi uchun zamin hozirlaganlar. Tariximizning so'ngi paleolit bosqichi ko'pgina boshlamalarning boshlanishi davri bo'lib, unda dastlabki san'at, diniy tasavvurlar, oila hamda sotsial tashkilotlarning ildizlari shakllanadi. Toshga ishlov berish yuqori darajada taraqqiy topadi.

Uchko'prik tumaniga qarashli Sariqo'rg'on qishlog'i hududidan oqib o'tadigan So'x daryosining o'ng qirg'og'i terrasalarida¹ ham qidiruv ishlari olib borildi. Natijada, daryoning uchinchi terrasasidan so'ngi paleolit davrida yashagan ajdodlarimiz tomonidan ishlov berilgan o'nlab tosh buyumlar yig'ib olindi. Ushbu buyumlar, asosan, qora yoki kulrangli bazalt toshlardan va kremniylashgan tosh jinslaridan ishlangan nukleuslar², tosh qirg'ichchalar va kesgichlardan iboratdir. Ta'kidlash joizki, yuqorida tilga olingan tosh buyumlarning barchasi so'ngi paleolit davri uchun xarakterli bo'lib, bu Qo'qon atrofidan topilgan ushbu davrga oid ikkinchi yodgorlik edi. Ushbu topilmajoyga Sariqo'rg'on 1 nomi berildi.

Sariqo'rg'on yodgorligiga yaqin joydan o'rta paleolit davriga oid (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar) bir nechta tosh buyumlari topildi. Ular ham qora rangli bazalt toshlardan ishlangan qo'pol tosh nukleuslar va tosh pichoqlardan iborat edi. Demak, aytish mumkinki, So'x daryosining eng yuqori terrasasida ilk paleolit davrida xomo erektuslar (Selungur va Chashma materiallari misolida), o'rta paleolit bosqichida neandertal tipdagi odamlar³ va nihoyat, daryoning uchinchi terrasasi so'ngi paleolit davrida ilk zamonaviy odamlar (Sariqo'rg'on 1 materiallari asosida) istiqomat qilganlar. Farg'onaning tosh davriga oid asosiy yodgorliklari So'x daryosi terrasalari hamda unga tutash soylardagi g'or makonlarda joylashganligi daryoning o'ta qadimiyligini va uning atrofida ibtidoiy odamlar turli jismoniy tiplarining yashashi va o'ziga xos madaniyatlar yaratishlari uchun qulay paleoekologik sharoitlar mavjud bo'lganligini ta'kidlash mumkin.

Xulosa qilib ayta olamizki, Qo'qon va uning atrofidagi hududlardan yuqorida tilga olingan so'ngi paleolit davriga oid yodgorliklarning topilishi va ilmiy muomalaga kiritilishi Farg'onaning tosh davri tarixidagi yetishmayotgan bo'shliqni to'ldiradi.

¹ terrasalar - uzoq vaqt mobaynida daryo o'zani hosil qiladigan zinasimon sohillar

² nukleuslar - qurollar yasash uchun tosh parchalari sindirib olingandan keyingi qoldiq mahsulot – o'zak toshlar

³ yuqorida ta'kidlangan So'xning ikkinchi terrasasi materiallari bunga asos bo'la oladi